



VII. TRANSPORT VA ALOQA

2025- yil yanvar-sentabr

- I. Yuk tashish va yuk aylanmasi
- II. Yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi
- III. Uslubiy ma'lumotlar

I. Yuk tashish va yuk aylanmasi

2025-yil yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, barcha transport turlarida jami 59,2 mln tonna yuk tashildi, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 119,6 % ni tashkil etdi. Transport turlari bo'yicha avtomobil transportida 53,7 mln tonna, temir yo'l orqali 5,3 mln tonna, Havo transportida yuk tashish ko'rsatkichi 0,2 mln tonnani tashkil etdi.

Yuk tashish (2025- yil yanvar-sentabr)

	Hajmi	O'sish sur'ati, % da
Transportda tashilgan yuklar, mln t	59,2	119,6
temir yo'l	5,3	100,9
Avtomobil	53,7	108,1
havo yo'li	0,2	56,0

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


Tashilgan yuklar hajmi

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida transport turlari yuk aylanmasining jami hajmi 3 272,9 mln tonna-km (o'sishi 12,1 %)ni tashkil etdi.

Yuk aylanmasi (2025- yil yanvar-sentabr)


	Hajmi	O'sish sur'ati, % da
Transport yuk aylanmasi, mln t-km	3 272,9	112,1
temir yo'l	1 474,0	95,8
avtomobil	1 798,9	108,7

Tashilgan yuklarning transport turlari bo'yicha tarkibi (yanvar-sentabr)



2025-yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy yuk tashish hajmida eng yuqori ulushni avtomobil transporti (91,0 % ini) egalladi, boshqa transport turlarida yuk tashish ulushi esa 9,0 % ini tashkil etdi.

Yuk aylanmasining transport turlari bo'yicha tarkibi (yanvar-sentabr)



2025-yil yanvar-sentabrda, o'tgan yilga nisbatan transportning yuk aylanmasi jami hajmida ayrim transport turlarining ulushi biroz o'zgardi, xususan; temir yo'l transportining ulushi 45,0 % ga, avtomobil transporti 55,0 % ga o'sishi qayd etildi.

Temir yo'l transporti

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida temir yo'l transportida jami 5 319,8 ming tonna yuk tashilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,9 % ni tashkil etdi. Temir yo'l transporti yuk aylanmasi hajmi 1 474,0 mln tonna-km ni, o'sish sur'ati esa 95,8 % ni tashkil etdi.



Magistral temir yo'l transportida asosiy turdagi tashilgan yuklar ko'rsatkichi
(2025- yil yanvar-sentabr)

	Hajmi, ming t da	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Jami yuklar	5 319,8	100,0	100,9
<i>shu jumladan:</i>			
neft yuklari	318,6	6,0	48,2
qora metallar	93,2	1,8	89,7
kimyoviy va mineral o'g'itlar	380,9	7,2	85,0
qurilish yuklari	203,7	3,8	125,2
sement	325,6	6,1	2,9 m.
don va tegirmonda tortilgan	100,0	1,9	133,7
boshqa yuklar	3 897,8	73,3	104,0

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Temir yo'l transportida tashilgan yuklar hajmi](#)

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy foydalanishdagi temir yo'l transportida tashilgan yuklarning ayrim turlari bo'yicha 2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi. Bular, sement (292,8 %), don va tegirmon mahsulotlari (133,7 %) va qurilish yuklari (125,2 %) kabi yuklardir.


Temir yo'l transportida yuk tashishning umumiy hajmida salmoqli ulushi kimyoviy va mineral o'g'itlar (7,2 %), sement (6,1 %), neft yuklari (6,0 %), don va tegirmonda tortilgan don mahsulotlari (1,9 %), qora metallar (1,8 %) va boshqa tashilgan yuklar (73,3 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Avtomobil transporti

Avtomobil transporti yuk tashishda muhim ahamiyatga ega transport turi hisoblanadi. 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida 53,4 mln tonna yuk tashilgan bo'lib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 8,1 % ga o'sish qayd etildi. Yuk aylanmasi hajmi esa 1 798,9 mln tonna-km ni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 8,7 % ga o'sish kuzatildi.

Avtomobil transportida yuk tashish va yuk aylanmasining o'sish sur'atlari

(2025- yil yanvar-sentabr)




Taqqoslash uchun: 2024-yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transporti yuk aylanmasining o'sish sur'ati 108,1 % ni tashkil etgan. Avtomobil transportida tashilgan yuklar hajmi 49,5 mln tonna, ya'ni, 2023- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 42,7 % ga o'sishi qayd etilgan.

Havo transportida tashilgan yuklar 24,2 ming tonnani tashkil etib, o'tgan yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 56,0 % tashkil etdi.

Havo transportida yuk tashishning o'sishi (pasayishi)

(2025-yil yanvar-sentabr)



II. Yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha transport turlarida yo'lovchi tashish ko'rsatkichi 2024- yilning mos davriga nisbatan 4,9 % ga o'sib, uning hajmi 557,3 mln nafar yo'lovchini tashkil etdi.

Yo'lovchi tashishning transport turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

	Hajmi	O'sish sur'ati, % da
Transportda tashilgan yo'lovchilar, mln yo'lovchi	557,3	104,9
temir yo'l	1,4	99,5
avtomobil	531,7	100,9
havo yo'li	24,2	117,0

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Tashilgan yo'lovchilar soni

2025-yil yanvar-sentabrida transportning yo'lovchi aylanmasi hajmi 12 163,9 mln nafar yo'lovchini qayd etdi. Transportning yo'lovchi aylanmasi tarkibida nisbatan yuqori o'sish sur'ati avtomobil transportida (101,5 % ga o'sish) qayd etildi, temir yo'l transportida esa o'sish sur'ati 99,5 % ni tashkil etdi.

Yo'lovchi aylanmasining transport turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

	Hajmi	O'sish sur'ati, % da
Transport yo'lovchi aylanmasi, mln yo'lovchi-km	12 163,9	101,4
temir yo'l	215,8	99,5
avtomobil	11 948,1	101,5

III. Uslubiy ma'lumotlar

Transport statistikasi – transportda sodir bo'ladigan hodisalar va jarayonlarni o'rganadigan statistika sohasidir. Transport statistikasi ko'rsatkichlari transportning alohida turlari bo'yicha ma'lumotlarni: temir yo'l, avtomobil, shahar elektr, quvur yo'li va havo ma'lumotlarini o'z ichiga oladi.

Yuk tashish (yuk tashish hajmi) – transport orqali tashilgan yuklarning tonnalaridagi miqdori (pullik bagaj va pochta qo'shgan holda). Ko'rsatkich transport turlari, qatnov, yuk turlari bo'yicha hisobga olinadi. Yuklarni tashish jarayonining dastlabki daqiqasi "jo'natilgan yuklar (jo'natish)" ko'rsatkichi bilan aks ettiriladi, yakuniy nuqta – "kelib tushgan yuklar (kelib tushishi)" ko'rsatkichi hisoblanadi.



Tashilgan yo'lovchilar – ma'lum vaqt davomida avtomobil vositalarida turli qatnov turlari bo'yicha tashilgan yo'lovchilar soni (statistik kuzatuv birligi bo'lib yo'lovchi-qatnovi hisoblanadi).

Yo'lovchi aylanmasi – transportning yo'lovchi tashish bo'yicha ish hajmi. O'lchov birligi yo'lovchi-kilometr hisoblanadi. Har bir tashish bo'yicha yo'lovchilar sonini tashish masofasiga ko'paytmasini yig'indisi orqali aniqlanadi. Qatnov turlari va boshqa belgilar bo'yicha alohida hisoblanadi.

Yo'l-transporti hodisasi – transport vositasining yo'ldagi qatnovi jarayonida sodir bo'lib, fuqarolarning o'limi yoki ularning sog'lig'iga zarar yetishiga, transport vositalari, inshootlar, yuklar shikastlanishiga yoki boshqa tarzda moddiy zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan hodisa.

Aloqa statistikasi bu – aloqa kabi iqtisodiy sektorning ommaviy jarayonlari va hodisalarini o'rganadigan statistika fanining bir tarmog'idir.

Foydali havolalar

[Transport statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizam](#)

[Avtomobil transporti faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha uslubiy nizam](#)

[Aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizam](#)

Mas'ul:
Xizmatlar va savdo sohasi
statistikasi bo'limi

Manzil: 150100, Farg'ona shahar,
Oq yo'l ko'chasi, 104 a-uy
Pochta: farstat@farstat.uz
Tel: 73 241-98-82 (4090)
